

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11120166>

MUMTOZ ADABIYOTDA IT TIMSOLI

Rustamova Dilafuz

SamDU filologiya fakulteti 2-kurs talabasi

Hasanova Mashxura

Ilmiy rahbar: Mumtoz adabiyot tarixi kafedrasida katta o'qituvchisi

***Annotatsiya:** Ushbu maqola orqali barcha uchun qadrli bo'lib ulguragan vafodor va sadoqatli itning ijodkorlar tomonidan qay tarzda yoritilganini ochib berishga harakat qildik. Itning xarakter xususiyatini har ikki tomondan yoritishni maqsad qildik va Hadisi sharif, Alisher Navoiy asarlariga tayangan holatda ushbu maqolani shakllantirdik.*

***Kalit so'zlar:** it, hadisi Sharif, Alisher Navoiy asarlari, "Kahf" surasi.*

So'z shunday qudratliki, his-tuyg'u, fikr-mulohaza so'z orqali ifoda etiladi. Adabiyotimiz durdonalari so'z orqali badiiy adabiyotga tamal toshlarini qo'yishgan. Nodira, Uvaysiy, Lutfiy, Atoyi, Navoiy, Bobur, Sakkokiy, Jomiy kabi ijodkorlar so'zlarni mohirona qo'llab, ishq mavzusida, mehr-muhabbat mavzusida, yor-do'stlar to'g'risida abiotlar bitgan. Biz esa mumtoz adabiyotimizda it timsoli aks ettirilishi haqida mushohada yuritamiz. Turli manbalarda it turli timsollarni ochib berish uchun qo'llanilgan. Ba'zilarida it sadoqatli do'st sifatida qo'llansa, ba'zilarida ruhiy holatni ochib berish uchun asos bo'lgan. Keling, birgalikda asarlarda it qanday timsollarni yaratganligini ko'rib chiqaylik.

Musulmon xalqi uchun muqaddas bo'lgan kitob Qur'oni Karimdir. Shu sababli muddaoni Qur'on oyatlaridan boshlasak. Qur'oni Karimning "Kahf" surasida kofirlar zulmidan qochgan yigitlar haqida gapirilgan. O'sha yigitlar kofirlardan qochishadi. Chunki ularga biron nimani tushuntirishni iloji yo'q edi. Ulardan qochish eng afzali edi. Iymonini saqlab qolishning eng yaxshi yo'li shu edi. Ular Kahf g'origa yashirinshadi. Alloh ham ularni asrab, quyosh nurlarini tekkizmaydi. Ular shamsiy yil hisobi bo'yicha uch yuz yil Kahf g'orida yashaydilar. Ular uyg'ongalarida qancha vaqtdan buyon uxlayapsan deganlarida bir kun yoxud kunning bir qismicha deya aytishadi. Ular uxlaganda g'or yonidagi it ularni qo'riqlab yotadi. Itdan qo'riqib hech kim g'orga yaqinlasha olmaydi. Yigitlar va itlar nechtaligi noma'lum. Hali ular: uchtadirlar itlari to'rtinchilaridir, - derlar va "beshtadirlar itlari oltinchilaridir", -

deb g'orga tosh otarlar va" yetitadirlar itlari sakkizinchilaridir ham", - derlar. Seni "Robbim ularning sanog'ini yaxshi bilguvchidir. Ularni juda oz kishi bilur"-degan. Bas, ular haqida tortishib yurma degan edilar. Bundan shuni anglashimiz mumkinki, hech bir kishi o'zi aniq ma'lumotga ega bo'lmagan jarayoni haqida tortishmasligi hamda boshqalarga noto'g'ri ma'lumot bermasligi lozimligini keltirib chiqaradi

Hadisi sharifda esa "Jannatga kiradigan o'n nafar hayvonlardan biri bu As'hoobi Kahfning vafodor itidir". ("Al-jome al-Kabir"). It vafodorligi, sadoqatligi uchun, hattoki, jannatga kiruvchi hayvonlar qatoridan joy olgan. Qadim davrlardan buyon it muqaddas va sevimli hayvonlardan biri bo'lib kelgan. Hadislarda it bilan bog'liq manzaralar ko'p uchraydi. Rasululloh sallollohu alayhi va sallam "Shar birortangizning idishingizga it teksta, yetti marta yuvingiz!" - deganlar. Yana birida esa, "Bani Isroil qavmidan bir kishi bir itning chanqoqdan tuproq yalayotganini ko'ri, mahsisidan suv olib, itga ichirdi Alloh taolo u bandani mukofotlab, jannatga kirgizgay". "Rasululloh sallollohu alayhi va sallam zamonida itlar masjidimizga kirib chiqib yurar edi, suv bilan biror joyni yuvmas edilar", - degan sahobalardan biri. Adiy Ibn Hotim roziyallohu anhudan itlar bilan ov qilish haqida so'rashganda: "Agar itingni o'zing ovga olib borsang-u, o'ljani o'ldirib (tutib) bersa, yeyavergil," - degan edilar. Bundan ko'rinib turibdiki, it har zamonda hurmat hamda e'zozda bo'lgan boshqa hayvonlarga nisbatan. Hattoki, bir itga yaxshilik qilgan kishi jannat bilan mukofotlangan. It bajargan ish halol deyish mumkin. Ov qilishga o'rgatgan va u tutgan hayvon iste'mol qilish mumkinligi shar'iy tasdiqlangan. Ushbu fikrni Alisher Navoiy ham o'z asarlarid a tasdiqlaydi. Ya'ni "It ta'lim o'rganib, shunday kamol topadiki, hatto, o'g'zida keltirgan ovi halol bo'ladi, olim haromni halol qilishga o'rgatuvchi it bo'lsa, o'g'ling bilimsiz bo'lsa, uni bilimli qiladi", - deydi "Hayrat ul-abror" asarida.

Shunday ma'lumotlar ham borki, agar tahorat suviga it tekkan bo'lsa, o'sha suvdan foydalanish mumkin, tahorat qabul bo'ladi deyilgan. Demak, it halol va pokiza hayvondir. Uning yumushi birorta hududni qo'riqlabgina qolmay, o'z egasiga vafodordir. U doim harakatda bo'lib doim nimalar bilandir shug'ullanib yuradi. Xalq orasida itning bunday xarakteriga nisbatan

El qo'nmay, it tinmas kabi maqol ham shakllangan

Bundan tashqari buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning "G'aroyib us-sig'ar" dostonidagi "Ey nubuvvat xaylig'a xotam... " deb boshlanuvchi Na't g'azali haqida muhokama yuritimiz. Ushbu ishqiy g'azalning maqta'si

Itlarning maxsus mahzundir Navoiy, koshki,

Kirsa bu mahrum ham ul zumrayi mahram aro

shunday edi. Navoiy ushbu bayt orqali o'zini yor oldida it qatori bo'lolmaganiga o'kinadi. Ya'ni Yorning maxsus itlari mavjud bo'lib, Navoiy o'sha yorni qo'riqlovchi itlar qatoriga kirolmayotganidan afsuslanadi. U yorini shunday sevadiki, hattoki, uni

qo'riqllovchi vafodor itdek bo'lishga ham rozi. Ammo oshiq bundan mahrum. Bu bayt orqali Navoiy itning sadoqatli, vafodor do'st ekanligiga ishora qiladi. It hech qachon qanday vaziyat bo'lsada egasi (do'sti)ni qiyin holatda qoldirmaydi. U bilan har qanday murakkab vaziyatda birga bo'la olishini nazarda tutadi. Oshiq o'sha it kabi sadoqatli, vafodor yor bo'lishni xohlaydi va bunga tayyor.

Ma'lumki, it-odam tomonidan xonakilashtirilgan birinchi hayvon. Bu uy hayvonlari eng sodiq va aqlli hayvonlar hisoblanadi. Itning aqlli, yo'l boshchi, vafodor ekanligini A.Navoiy "Layli va Majnun" dostonida yana bir karra isbotlaydi. Ya'ni Qays (Majnun) ilk bora Laylini ko'rganida hushini yo'qotadi, so'ng uni qidira boshlaydi. Layli qabilasi tomonida it ovozi eshitilganda Majnun ham itdek fig'on chekadi. Ruhim ozig'i bo'lgan, ey jonivor, sen g'am tuni vafo ko'rsatuvchi, yo'ldan adashganlarga rahnamolik, yo'l boshchilik qiluvchisan, hozir yorimni xohlagan vaqtingda ko'rolasan, u yurgan yo'llarda kezolasan, jamolini, mehrini tuyolasan. Lekin men esa xorman, sen mukkaramsan. Sen yor eshigida shod-u xurramsan, men undan mahrum bo'lgan g'arib-u majruhman. Sen boshingni yorim ko'chasi toshiga bosh qo'yib yotsang, menga ayriliq toshlari yog'iladi. Sen vafoda ham, sadoqat-u safoda ham mendan ortiqsan. Falak meni xor etdi, seni esa hurmat va sadoqatga sazovor etdi deya azob chekadi. Majnun ishq bobida, mehr va hurmat oldida o'zini itdan ham yupun his qildi.

Alloh taolo har bir narsani yaratar ekan ularda yaxshi va yomon fazilatlar shakllangan bo'ladi. Masalan: dunyodagi eng shirin va eng achchiq narsa bu tildir. Shunday ekan it vafo, sadoqat, hurmat, mehr va sodiqlikda hamma narsadan ustunlik qiladi. Ammo uning bo'lar, bo'lmas vaziyatda akillashi va ba'zan insonlarga jaroxat yetkazishi tanqid ostidadir. Ba'zan ota onalar, katta yoshli shaxslar beodob bolalarni itga qiyoslaydilar. Biz yuqorida A.Navoiy it obrazining yaxshi fazilatlarini o'z asarlari orqali ochib berganligiga guvoh bo'ldik. Buyuk mutafakkir "Mahbul ul-qulub" asari orqali juda chiroyli o'xshatish qilganlar. 48-tanbehda til haqida hukm yuritilgan bo'lib behuda so'zlaydigan ezma kechalari tong otguncha tinmay huradigan itga o'xshaydi deya xunuk, yoqimsiz gaplarni o'z o'rnida ishlatmagan kishilarni itga qiyoslaydi. Yana bir asarida esa itning yaxshi bo'lmagan xislatlarini bazmlarda mast holatda yuruvchi yosh- qarilarni quturgan itga o'xshatadi. Ular xuddi quturgan it kabi kechasi turli yoqimsiz hunarlar ko'rsatib, sharmandalikni davom ettiradi. Tong otgandan so'ng o'z ishi bilan mashg'ul bo'ladi. Mana shu tarzda ijodkorlar tomonidan itning turli xususiyatlari mohirona o'xshtishlat asosida yoritilgan.

Yuqorida keltirilgan fikrlar orqali itning turli xususiyatlarini ko'rdik. Har bir adib o'z asarlarida turli vaziyatda turli xil o'xshatishlar qilishgan. Xulosa qilib aytganda hech bir adib bekordan bekorga it timsolini o'z asarlariga kiritmagan. Jamiyatdagi ba'zi bir qusurlar yoki e'tiborga sazovor xislatlarni, o'z ruhiyatidagi o'zgarishlarni ochib berishda foydalanishgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Al - jome as-sahih" Imom al-Buxoriy.
2. "G‘aroyib us -degan" Alisher Navoiy.
3. "Xamsa": "Hayrat ul-abror", "Layli va Majnun".
4. "Mahbub ul- qulub".